XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko'chasi 55-uy, tel: (65) 33-22-131

2021 - yil 30 - dekabr VI-53-130-2-33-K/21 Vobkent tuman hokimligi

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkasiga mulk huquqi va ijara huquqining *(0,01 ga maydoni uchun)* tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun "E-IJRO AUKSION" elektron savdo maydonchasida auksion savdolariga chiqarishda minimal qiymati to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087-sonli qarori bilan xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlariga olis va chekka hududlarda joylashgan yer uchastkasiga mulk huquqi va ijara huquqini auksionga qo'yishda ularning boshlang'ich narxini 50 foizgacha kamaytirish, shuningdek, xalq deputatlari viloyatlar Kengashiga yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini auksionga qo'yishda boshlang'ich narxga chegirma belgilanadigan olis va chekka hududlar chegaralarini belgilash vakolati berilgan.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Vobkent tuman hokimligi moliya bo'limi, tuman davlat soliq inspeksiyasi, kadastr agentligi tuman bo'limi va kadastrlar palatasi tuman filialining tavsiyalari hamda fuqarolarning takliflari asosida tumandagi 3 ta mahalla fuqarolar yig'inlarining auksion savdolariga chiqarilishi belgilangan yer uchastkasining joylashgan joyiga qarab minimal qiymati hamda tuzatish koeffitsent miqdori ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi PQ-5087-sonli qaroriga muvofiq tumandagi 3 ta mahalla fuqarorlar yig'ini hududida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalaridan foydalanish huquqining (0,01 ga maydoni uchun) tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun "E-IJRO AUKSION" elektron savdo maydonchasida auksion savdolariga chiqarishda minimal qiymati to'g'risidagi Vobkent tumani hokimligi tomonidan tayyorlangan taklifni muhokama etib, xalq deputatlari Vobkent tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087-sonli qaroriga muvofiq tumanda 3 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkasiga mulk huquqi va ijara huquqining (0,01 ga maydoni uchun) tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun "E-IJRO AUKSION" elektron savdo maydonchasida auksion savdolariga chiqarishda minimal qiymati to'g'risidagi tuman hokimligi tomonidan

tayyorlangan taklifi 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

2. Tuman hokimligi axborot xizmati Sh.Sharopov, “Vobkent hayoti” tuman gazetasi tahririyati (O‘.Istatov), Savdo-sanoat palatasi Vobkent tumani tadbirkorlikka ko‘maklashish markazi (J.Umarov)lar bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini tuman mahalliy ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali tadbirkorlik sub’ektlari va aholining keng qatlamlariga yetkazilishi tavsiya etilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **F.Umarov**

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-130-2-33-K/21-сон қарорига
1-илова

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5087-sonli qaroriga muvofiq tumanda 3 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalaridan foydalanish huquqining (0,01 ga maydoni uchun) tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida auksion savdolariga chiqarishda minimal qiymati to‘g‘risidagi tuman hokimligi tomonidan tayyorlangan

TAKLIFI

T/r	**Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi**	**Koeffitsiyent miqdori**	**Boshlang‘ich qiymat miqdori** ***(0,01 gektar uchun BHM baravarida)***
1.	“Mirvoshi” MFY	1,00	12,5
2.	“Pushmon” MFY	1,00	12,5
3.	“Diyor” MFY	0,80	12,5